

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti
O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrası**

**O‘ZBEK ADABIYOTI
O‘qituvchi sillabusi**

Tuzuvchi: M.Abdullayeva

Fan/modul kodi 200.40‘A16M		O‘quv yili 2020-2021	Semestr 2 (bahorgi)	ECTS - Kreditlar 16	
2- semestrdağı ECTS – Kreditlar soni 3		Ta‘lim tili o‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning darajasi Yuqori darajadagi fan - 300		Fan/modul turi Majburiy		Modul rahbari M.Abdullayeva abdullayeva@navoiy-uni.uz	
Universitet korpusi 3-blok		Hafta kunlari Dushanba, juma		Vaqtı Kunning birinchi yarmida	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	<i>O‘zbek adabiyoti</i>	<i>2-semestr</i> 45	<i>2-semestr</i> 66	<i>2-semestr</i> 111	
I1-semestr	Modul 1 <i>Kirish. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar</i>	12	8	20	
	Modul 2 <i>X-XII asrlar o‘zbek adabiyoti</i>	14	30	34	
	Modul 3 <i>XIII-XIV asrning birinchi yarmi adabiyoti</i>	19	28	47	
	JAMI	45	66	111	

Fanning tavsifi –“O‘zbek adabiyoti” o‘quv fani eng qadimgi davrdan bugungi kunga qadar yozilgan va yozilayotgan muhim adabiy manbalarni, ularning mualliflari hayoti va faoliyatini, adabiy muhit va jarayonni, aniqrog‘i, o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Fan mohiyati – Ushbu fan o‘zbek mumtoz adabiyotining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o‘zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi ularoq dunyoga kelgan milliy uyg‘onish adabiyotining xos xususiyatlarini hamda istiqloq davri adabiyotidagi o‘zgarishlarni qamrab oladi.

Fanning natijasi – O‘zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti davomida so‘z san‘ati takomili, estetik ta‘sirini his etish bo‘yicha **tasavvurga ega bo‘lishi**;

Adabiy-badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnlarda qo‘llaniladigan tasviriy vositalar, she‘riy san‘atlarni **bilishi va ulardan foydalana olishi** talab etiladi.

Lug‘at ustida ishlay olish, eski o‘zbek yozuvi, arab, fors tillaridan xabardor bo‘lish va muhim xulosalar yasay olish, o‘zbek adabiyotining yuksak g‘oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o‘rganishi uchun talabalar:

- o‘zbek adabiyoti konsepsiyasining o‘ziga xosligi;
- o‘zbek mumtoz adabiyotining ifoda usullari;
- o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodining yetakchi tamoyillari.
- o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- o‘zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini aniqlash;
- o‘zbek adabiyotida jadidchilikning o‘rmini belgilash;
- o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalar hayoti va ijodini tavsiflash;
- o‘zbek adabiyotining tarixiy-milliy, miliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash;
- har bir ijodkorning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rmini aniqlash **ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari** zarur.

Baholash me‘zonlari –

A‘lo (5) talaba mashg‘ulotlarda juda faol, fanning nazariy asoslarini yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarini amaliyotga qo‘llay oladi;

-talaba ijodiy fikrlaydi, adabiy-badiiy asarlarni tahlil qila oladi, o‘quv materialini mohiyatini tushunadi;

-talaba taqdim etilgan o‘quv masalalarini yechish yo‘llarini izlaydi, manbalar bilan ishlaydi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo‘ladi;

Yaxshi (4) talaba o‘rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda asarni tavsiflay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi bilan birgalikda, qo‘yilgan masalalarni o‘rganilayotgan nazariy

bilimlari asosida amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi;

-bilim va ko'nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir ishdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladi;

-talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, adabiyotga oid materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega;

Qoniqarli (3) talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan topshiriq va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi;

-talaba qator belgilar asosida ma'lum janrni farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialni tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega;

Qoniqarsiz (2) talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan tavsiya va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi;

-talaba qator belgilar asosida ma'lum obyektini farqlash bilan birgalikda o'quv materialini tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
I-JN	40	27	Yozma topshiriq
I-ON	30	17	Og'zaki
YN	30	17	Test

Ta'lim berish va o'qitish metodlari – fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, audio-video materiallar hamda texnik vositalardan foydalaniladi. Mashg'ulotlar rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlik, o'yin texnologiyalari va qator metodlari orqali tashkil etiladi.

- Aqliy hujum;
- Muammoli vaziyat;
- Keys kabilar.

Kalit so'zlar –

O'zbek adabiyoti tarixi, davrlashtirish masalasi, qadim davr og'zaki va yozma yondgorliklari, mif, afsona, rivoyat, adabiy janrlar, "Avesto", O'rxun-Enasoy yodgorliklari, bitiktoshlar, arab islom adabiyoti, "Qisas ul-anbiyo"lar, nasriy asar, xalq og'zaki ijodi, kichik janrlar, badiiy asar, ilmi-adab-didaktika, mumtoz lirika, oshiqona ruh, turkona so'z, adiblar, lirik qahramon, badiiy obraz, o'rganilish tarixi, manbalari, ilmiy tadqiqotlar, sharqshunos olimlar, tahlil, munosabat.

Mavzular ro'yxati –**1. Ma'ruza mashg'ulotlari****“O‘zbek adabiyoti” fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlari taqsimoti:*****II-semestr***

№	Mavzular	Soat
I.	Kirish. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar	4
1.	O‘zbek adabiyoti tarixi fanining maqsad va vazifalari	2
2.	Eng qadimgi og‘zaki va yozma adabiy yodgorliklar	2
II.	X-XII asrlar o‘zbek adabiyoti	4
1.	Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devoni lug‘otit-turk” asari	2
2.	Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg‘u bilig” asari. Ahmad Yugnakiy va uning “Hibat-ul haqoyiq” asari	2
III.	XIII-XIV asrning birinchi yarmi adabiyoti	7
1.	Rabg‘uziy hayoti va ijodi. Durbek hayoti va ijodi	2
2.	Xorazmiy va Sayfi Saroyi hayoti va ijodi	2
3.	Atoiy va Sakkokiy hayoti va ijodi	2
4.	Mavlono Lutfiy hayoti va ijodiy merosi	1
Jami		15

2. Amaliy mashg‘ulotlar:***II-semestr***

№	Mavzular	Soat
1.	Asotirlar va qahramonlik qissalari	2
2.	Qadimgi qo‘shiqlar va lirik she‘rlarning mavzu doirasi	2
3.	“Avesto”-adabiy-badiiy manba sifatida	2
4.	O‘rxun-Enasoy yodgorliklari	2
5.	X-XII asrlarda fors-tojik adabiyoti	2
6.	Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit-turk” asari	2
7.	Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg‘u bilig” asari	2
8.	Yassaviy va uning hikmatlar to‘plami	2
9.	Pahlavon Mahmud – ruboiynavis	2
10.	Rabg‘uziy. “Qissasi Rabg‘uziy” asari	2
11.	“Muhabbatnoma” - noma janrining yetuk namunasi sifatida	2
12.	Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari	2
13.	Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z” dostoni	2

14.	Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostoni - erkin tarjima namunasi sifatida	2	
15.	Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni	2	
Jami		30	

Fan bo'yicha savollar to'plami –

1. Qadimgi Turondagi ilm-fan, madaniyat va san'at taraqqiyoti haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar beriladi?
2. Ajdodlarimizning e'tiqodiy qarashlari haqida nimalar bilasiz?
3. Turon hududida turkiy tilning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni haqida gapirib bering.
4. Markaziy Osiyo xalqlari qanday yozuvlardan foydalangan?
5. Qadimgi Turon xalqlari ilm-fani, qadimgi arxitektura yodgorliklari, tasviriy va naqqoshlik san'ati xususida so'zlang.
6. Eng qadimgi og'zaki adabiyot yodgorliklari qaysi manbalar orqali bizgacha yetib kelgan?
7. Qadimgi mif va afsonalar haqida nimalarni bilasiz?
8. Qadimgi qo'shiqlar va lirik she'rlar haqida gapirib bering.
9. Qahramonlik eposi nima? Namunalar keltiring.
10. “To'maris”, “Shiroq” rivoyatlari va Mirkarim Osimning shu mavzuga doir hikoyalari haqida so'zlang.
11. Zarina va Striangiya eposining qisqacha mazmunini hikoya qilib bering.
12. Zariadr va Odatida qissasi, Rustam va Siyovush haqidagi qahramonlik eposlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
13. “Avesto” qanday kitob, u haqda nimalarni bilasiz?
14. O'rxun-Enasoy yodgorliklari, ularning o'rganilishi tarixi va badiiy ahamiyati haqida so'zlang.
15. Arablar istilosining O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotiga ta'siri haqida gapirib bering.
16. Somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar davridan qanday arxitektura namunalari saqlanib qolgan?
17. O'zbek xalqi qaysi yozuvlardan foydalangan?
18. O'rta Osiyolik qomusiy olimlardan kimlarni bilasiz?
19. X-XII asrlarda faoliyat ko'rsatgan fors-tojik adabiyoti namoyandalari haqida so'zlab bering.
20. Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi maxosin ahl al-asr” tazkirasi haqida so'zlang.
21. Mahmud Qoshg'ariy va uning “Devonu lug'otit turk” asari tarixi va mundarijasini bilasizmi?
22. “Qutadg'u bilig”da doston muallifi haqida qanday ma'lumotlar beriladi?
23. “Qutadg'u bilig”dagi ramziy-majoziy obrazlarni izohlang.
24. Ahmad Yugnakiy haqida qaysi manbalarda ma'lumot keltirilgan?

25. "Hibat ul-haqoyiq"da bilim, til odobi, saxiylik va baxillik xususida adib qanday fikr yuritadi?
26. Ahmad Yassaviy va uning "Devoni hikmat" asari haqida nimalarni bilasiz?
27. Ahmad Yassaviy hikmatlarining manbalari haqida so'zlang.
28. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namunalar yod aytib, sharhlang.
29. XIII-XIV asr o'rtalarida boshqa mamlakatlarga borib ikki, uch va to'rt tilda ijod qilgan shoirlardan kimlarni bilasiz?
30. Nosuriddin Rabg'uziy va uning "Qisasi Rabg'uziy" asari haqida so'zlang.
31. "Qisasi Rabg'uziy"dagi qissalarning mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
32. "Qisasi Rabg'uziy" tarkibidagi she'riyat namunalaridan parchalardan yod ayting va sharhlang.
33. Pahlavon Mahmud va uning ruboiylari haqida nimalarni bilasiz?
34. Pahlavon Mahmud ruboiylaridan yod ayting va tahlil qiling.
35. Temuriylar davrida o'zbek adabiyoti qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?
36. Shu davrdagi lirik tur, janrlar taraqqiyoti va adabiy aloqalar haqida gapirib bering.
37. Shu davrda adabiyotshunoslikka doir yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?
38. Xorazmiy haqida "Muhabbatnoma"da qanday ma'lumotlar berilgan?
39. "Muhabbatnoma" tarkibida kelgan qanday she'riy janrlarni bilasiz?
40. Qutb Xorazmiy "Xusrav va Shirin" masnaviysi Nizomiy Ganjaviyning shu nomdagi dostoni bilan qanday o'xshash va tafovutli jihatlari bor?
41. Sayfi Saroyi asarlarini sanab bering.
42. "Suhayl va Guldursun" dostoni haqida nimalarni bilasiz?
43. Oltin O'rda adabiy muhiti haqida gapiring?
44. Nosuriddin Rabg'uziy hayoti va faoliyati haqida so'zlang.
45. "Qisasi Rabg'uziy"dagi qissalarning mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
46. "Qisasi Rabg'uziy" tarkibidagi qissalarning janriy xususiyatlarini sharhlang.
47. Nuh payg'mbar haqidagi qissa mazmunini so'zlab bering.
48. Agiografik asarlar deb, qandaq asarlarga aytiladi?
49. Qissalar tarkibidagi kichik janrlar haqida ma'lumot bering?
50. Rabg'uziy hayoti va ijodi bo'yicha kimlar tadqiqot ishlari olib borgan?
51. Mahmud ibn as-Saroyi hayoti va faoliyati to'g'risida so'zlang?
52. "Nahj-ul-farodis" asari haqida nimalarni bilasiz?
53. Xorazmiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
54. Xorazmiy haqida "Muhabbatnoma"da qanday ma'lumotlar berilgan?
55. Noma janrining shakllanish tarixi.
56. Qutb Xorazmiy "Xusrav va Shirin" masnaviysi Nizomiy Ganjaviyning shu nomdagi dostoni bilan qanday o'xshash va tafovutli jihatlari bor?
57. "Xusrav va Shirin" dostonidagi Xusrav obrazi talqini.
58. "Xusrav va Shirin" va "Farhod va Shirin" dostonining o'xshash va farqli jihatlari.
59. Sayfi Saroyi lirikasi haqida gapiring.
60. "Guliston bit-turkiy" asari tuzilishi va mazmunini ayting.
61. "Guliston bit-turkiy"da ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.
62. "Suhayl va Guldursun" dostoni haqida nimalarni bilasiz?

63. “Yusuf va Zulayho” dostoni muallifi haqidagi munozaralar xususida nimalarni bilasiz?
64. Dostonda ifodalangan Balx qamali haqida so‘zlang. Doston muallifining bunday tasvirni berishdan muddaosi nima?
65. “Yusuf va Zulayho”da adolatli va tadbirkor podshoh g‘oyasi qanday tasvirlangan?
66. Dostonning badiiy xususiyatlari haqida so‘zlang.
67. Atoyi haqida qaysi manbalarda ma’lumot beriladi?
68. Atoyi she’riyatida o‘ziga xos xususiyatlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
69. Sakkokiyning tarjimai holi haqida qanday ma’lumotga egasiz?
70. Shoir g‘azallaridagi asosiy obrazlar haqida so‘zlang.
71. Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidasida olim va buyuk hukmdor qanday tavsiflanadi?
72. Lutfiyning tarjimai holi haqida qisqacha gapirib bering.
73. Lutfiyning hayoti va adabiy merosi xususidagi munozaralar qanday masalalarni o‘z ichiga oladi?
74. Lutfiy g‘azallarining mavzu ko‘lami haqida so‘zlang.
75. “Gul va Navro‘z” dostonidagi obrazlarning ramziy xususiyatlari va dostonda markazlashgan davlat g‘oyasining badiiy ifodasi haqida gapirib bering.
76. Gul obrazini dostonidagi vazifasiga ko‘ra tahlil qiling.
77. Navro‘z obrazining dostonidagi o‘rni qanday?
78. “Yusuf va Zulayho” dostoni muallifi haqidagi munozaralar xususida nimalarni bilasiz?
79. Dostonda ifodalangan Balx qamali haqida so‘zlang. Doston muallifining bunday tasvirni berishdan muddaosi nima?
80. “Yusuf va Zulayho”da adolatli va tadbirkor podshoh g‘oyasi qanday tasvirlangan?
81. Dostonning badiiy xususiyatlari haqida so‘zlang.
82. Nizomiy Ganjaviy va Haydar Xorazmiyning “Maxzanul-asror” nomli dostonlarining uyg‘un va tafovutli jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
83. Atoyi haqida qaysi manbalarda ma’lumot beriladi?
84. Atoyi she’riyatida o‘ziga xos xususiyatlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
85. Sakkokiyning tarjimai holi haqida qanday ma’lumotga egasiz?
86. Shoir g‘azallaridagi asosiy obrazlar haqida so‘zlang.
87. Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidasida olim va buyuk hukmdor qanday tavsiflanadi?
88. Lutfiyning tarjimai holi haqida qisqacha gapirib bering.
89. Shoirning hayoti va adabiy merosi xususidagi munozaralar qanday masalalarni o‘z ichiga oladi?
90. Lutfiy g‘azallarining mavzu ko‘lami haqida so‘zlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. R.Orzibekov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.: Fan, 2006.
2. Vohidov R., Eshonqulov X. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
3. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.

4. B.Qosimov. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. – T.: 2006.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi” toʻgʻrisidagi farmoni. (Xalq soʻzi 2017 yil, 8-fevral).
2. Mumtoz adabiyoti namunalari. 1,2-jild. Nashrga tayyorlovchilar: H.Boltaboyev, N.Rahmonov. OʻzMU nashriyoti. 2003.
3. Vohidov R., Eshonqulov X. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. Oʻquv qoʻllanma. -T.: Adabiyot jamgʻarmasi, 2006.
4. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: 2005.
5. Dolimov U. Milliy uygʻonish pedagogikasi. –T.: Noshir, 2012.
6. Qosimov B. Milliy oʻygʻonish: maʼrifat, jasorat, fidoiylik. – T.: Maʼnaviyat, 2002.
7. Xojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. - T.: Sharq, 1990
8. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. -T.: Universitet, 2006
9. Jabborov N. Adabiyot va milliy maʼnaviyat. -T.: Maʼnaviyat, 2015
10. Jabborov N. Maʼrifat nadir. -T.: Maʼnaviyat, 2010
11. Aliyev A. Maʼnaviyat, qadriyat va badiiyat. - T.: Akademiya, 2000.
12. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Maʼnaviyat. 2000.
13. Karimov H. Istiklol davri adabiyoti. - T.: 2010.
14. Mirvaliyev S. Oʻzbek adiblari. - Yozuvchi, 2000.
15. Adabiyot ensiklopediyasi // Tuzuvchi: H.Boltaboyev. – T.: Mumtoz soʻz, 2015.
16. Mumtoz adabiyoti namunalari. 3-jild. Nashrga tayyorlovchilar: H.Boltaboyev, N.Rahmonov. OʻzMU nashriyoti. 2002.

Elektron taʼlim resurslari:

1. <http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. <http://ziyouz.uz> – Oʻzbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> –Oʻzbekiston milliy taʼlim portali
5. <http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi
6. <http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti
7. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
8. <http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media taʼlim sayti
9. <http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
10. <http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti
11. <http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi
12. <http://txt.uz> – Elektron kutubxona

Oʻqituvchining kontakt maʼlumotlari
+99893 379 51 46

Oʻqituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti
Chorshanba, 15:00